

**SPORT HAKAMLARIGA
MALAKA TOIFASINI BERISH
TARTIBI BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

Sport hakamlariga malaka toifasini hamda sportchilarga sport pasportini berish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 22 bet.

Mazkur qo'llanma sport hakamlariga malaka toifasini hamda sportchilarga sport pasportini berish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma sport sohasidagi davlat xizmatchilari, sport tashkilotlari xodimlari, sportchilar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

MUNDARIJA

SPORT HAKAMLARIGA MALAKA TOIFASINI HAMDA SPORTCHILARGA SPORT PASPORTINI BERISH NORMATIV- HUQUQIY HUJJATLAR	4
KIRISH	5
ASOSIY TUSHUNCHALAR.....	5
SPORT HAKAMLARIGA MALAKA TOIFASINI BERISH TARTIBI	5
MALAKA KOMISSIYASI FAOLIYATI	5
ILOVALAR	5

Sport hakamlariga malaka toifasini hamda sportchilarga sport pasportini berish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi " Davlat xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6269-son Farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-iyuldagi 364-son " Sport hakamlariga malaka toifasini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 465-son "O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini tizimli rivojlantirish, ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, xususan, sport hakamlarining kasbiy salohiyatini oshirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sport musobaqalarining halolligi, adolatli baholanishi va ishonchliligi bevosita hakamlarning malaka darajasi bilan bog'liq bo'lib, ularni baholash va malaka toifalarini berish mexanizmlarini huquqiy asosda aniq belgilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sport hakamlariga malaka toifasini berishning o'ziga xos jihati mazkur **davlat xizmatining to'liq raqamlashtirilganligi hisoblanadi**. Endilikda ariza beruvchilar **Davlat xizmatlari markazlari** yoki **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP)** orqali elektron tarzda murojaat etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Axborot almashinuvi idoralararo elektron bog'lanish asosida, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, so'rovnomalarni shakllantirish, yig'im to'lovlarini to'lash, arizani kuzatib borish va natijalarni QR-kodli elektron hujjat tarzida olish kabi barcha bosqichlar raqamli formatda tashkil etilgan. Bu esa, sport sohasida xizmat ko'rsatishning **professional darajasini oshirish, inson omiliga bog'liq subyektiv qarorlar sonini kamaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga** xizmat qiladi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan Sport hakamlariga malaka toifasini berish bo'yicha uslubiy qo'llanma asosiy tushunchalar, sport hakamlariga malaka toifasini berish tartibi, sport hakamlari malaka toifasini olish uchun bajarilishi lozim bo'lgan talablar, malaka toifalarini berish bo'yicha malaka komissiyasi va uning vakolatlari kabi masalalarni qamrab oladi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Sport hakamlariga malaka toifasini berishda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

vakolatli organlar – O'zbekiston Respublikasi Sportni vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari;

sport hakami – sport turi qoidalariga hamda sport musobaqasi to'g'risidagi nizomga (reglamentga) rioya etilishini ta'minlash uchun jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi tomonidan vakolat berilgan, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va tegishli malaka toifasini olgan jismoniy shaxs;

malaka komissiyasi – sport hakamlariga tegishli malaka toifasini berish to'g'risida qaror qabul qilish yoki asoslangan rad javobini berish uchun vakolatli organ tomonidan tashkil etiladigan komissiya.

sport musobaqasi – sportchilar yoki sportchilar jamoalari o'rtasida har xil sport turlari (sport dissiplinalari) bo'yicha musobaqaning eng yaxshi ishtirokchisini aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya yoki sport tadbirining tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan nizom (reglament) bo'yicha o'tkaziladigan bellashuv;

sport tadbirlari – sport musobaqalarini, o'quv-mashq jarayonini va sportchilar ishtirokida sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladigan tadbirlar;

SPORT HAKAMLARIGA MALAKA TOIFASINI BERISH TARTIBI

Sport hakamlariga quyidagi malaka toifalari beriladi:

- ✔ xalqaro toifali sport hakami;
- ✔ milliy toifali sport hakami;
- ✔ birinchi toifali sport hakami;
- ✔ ikkinchi toifali sport hakami;
- ✔ uchinchi toifali sport hakami;
- ✔ sport bo'yicha hakam.



“Xalqaro toifali sport hakami” malaka toifasi sport turi bo'yicha tegishli xalqaro sport tashkiloti tomonidan beriladi.



“Milliy toifali sport hakami” malaka toifasini olish uchun **belgilangan muddat va talablardan oldin “Xalqaro toifali sport hakami” malaka toifasini qo'lga kiritgan sport hakamining toifasi** “Milliy toifali sport hakami” malaka toifasidagi **hakam hisoblanadi.**



“Milliy toifali sport hakami” malaka toifasi O'zbekiston Respublikasi **Sportni rivojlantirish vazirligi** tomonidan beriladi.



“Birinci toifali sport hakami”;

“Ikkinchi toifali sport hakami”;

“Uchinchi toifali sport hakami”;

“Sport bo’yicha hakam” malaka toifalari O’zbekiston Respublikasi Sportni vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari tomonidan beriladi.



Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun **Davlat xizmatlari markaziga** o’zi kelib murojaat qiladi yoki davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun **YIDXP**da ro’yxatdan o’tadi.

Ariza beruvchi o’zi kelib murojaat qilgan taqdirda Davlat xizmatlari **markazi xodimi** ariza beruvchi nomidan, YIDXP orqali murojaat qilgan taqdirda esa, **mustaqil ravishda** ushbu Qo’llanmaga 1-ilovaga muvofiq shakldagi tegishli so’rovnomaning elektron ravishda to’ldiradi.



So’rovnomaga ariza beruvchi faoliyat yuritayotgan tashkilot tomonidan berilgan mazkur Qo’llanmaga 2-ilovaga muvofiq shakldagi malaka toifasini berish to’g’risida **taqdimnoma namunasi** ilova qilinadi.



Ariza beruvchilardan ko’rsatilmagan ma’lumotlarni hamda boshqa hujjatlarni talab qilish **qat’iyan taqiqlanadi**.



So'rovnomaga ariza beruvchi to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, unga ilova qilinadigan hujjat rasmiylashtirilgandan so'ng ariza beruvchi uni identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari bilan (*elektron imzo, daktiloskopiya, yagona identifikatsiya tizimidagi login va parol, mobil-ID va boshqalar*) tasdiqlaydi.

Bunda **Ariza beruvchi tomonidan** so'rovnomani ERI bilan tasdiqlash talab etilmaydi.



Ariza Davlat xizmatlari markazlari orqali taqdim etilganda murojaatchidan **bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida** yig'im undiriladi.

Ariza YIDXP orqali taqdim etilganda, murojaatchidan Davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat etganda to'lanadigan summaning **90 foizi miqdorida** yig'im to'lanadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-108-son Farmoniga ko'ra bazaviy hisoblash miqdori **375 000 so'm** etib belgilangan.

Ariza beruvchilar davlat xizmatlaridan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega. Ariza beruvchi davlat xizmatlaridan foydalanishdan **bosh tortganda**, uning so'rovnomasi ko'rilmadan qoldiriladi.

Bunda hujjatlar ko'rib chiqilganligi uchun to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Ariza beruvchining nomzodini vakolatli organning **malaka toifasini berish uchun to'langan yig'im summasi** ariza beruvchining **yozma murojaatiga** asosan to'lig'icha **vakolatli organ tomonidan** ariza beruvchiga qaytariladi.

Bundan ariza beruvchi sport hakamlariga tegishli malaka toifasini berish to'g'risida qaror qabul qilish yoki asoslangan rad javobini berish bo'yicha malaka komissiyasidan (Malaka komissiyasi) **muvaffaqiyatli o'ta olmagan holatlar mustasno**.



Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat qilganda Davlat xizmatlari markazi **10 daqiqa mobaynida** arizani qabul qiladi, **ariza raqami va sanasini ariza beruvchiga yuboradi** yoki davlat xizmati ko'rsatishni rad etadi, shuningdek ariza qabul qilinganda uning so'rovnomasi Markaz xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so'ng barcha hujjatlar **10 daqiqa mobaynida vakolatli organga elektron shaklda yuboriladi**.



Davlat xizmati ko'rsatishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- ❖ ariza beruvchi tomonidan so'rovnomada haqiqiy bo'lmagan, soxta va noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilishi;
- ❖ davlat xizmatlari ko'rsatish uchun yig'imni to'lamaslik (bundan murojaat qilingan vaqtda ma'lumotlar qayta to'g'rilangan holatlar mustasno);
- ❖ sport hakami malaka toifalarini olish uchun belgilangan muddatdan oldin so'rovnoma taqdim etilishi;
- ❖ sport hakamlari malaka toifasini olish uchun lozim bo'lgan talablarni bajarmasdan so'rovnoma berilishi.



Davlat xizmatlari ko'rsatishni boshqa asoslar bo'yicha **rad etish taqiqlanadi.**

Ariza beruvchi YIDXP orqali murojaat qilganda so'rovnoma avtomatik tarzda vakolatli organga yuboriladi.

Malaka toifalarini berish

Malaka toifasi "Sport bo'yicha hakam" malaka toifasidan **boshlab beriladi.**

"Sport bo'yicha hakam" malaka toifasiga ega bo'lgan shaxsga navbatdagi malaka toifasi beriladi. Bunda:



"Sport bo'yicha hakam" malaka toifasiga ega bo'lmagan shaxsga "Uchinchi toifali sport hakami" malaka toifasini



"Uchinchi toifali sport hakami" malaka toifasiga ega bo'lmagan shaxsga "Ikkinchi toifali sport hakami" malaka toifasini;



"Ikkinchi toifali sport hakami" malaka toifasiga ega bo'lmagan shaxsga "Birinchi toifali sport hakami" malaka toifasini;



"Birinchi toifali sport hakami" malaka toifasiga ega bo'lmagan shaxsga "Milliy toifali sport hakami" malaka **toifasini berish taqiqlanadi.**



"Sport bo'yicha hakam" malaka toifasi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazilgan sport musobaqalarida hakamlik qilgan **O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga** beriladi.



“Uchinchi toifali sport hakami” malaka toifasi “Sport bo’yicha hakam” malaka toifasiga ega bo’lgan, O’zbekiston Respublikasi hududida o’tkazilgan sport musobaqalarida hakamlik qilgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. Bunda **“Sport bo’yicha hakam” malaka toifasi berilganiga kamida 1 yil o’tgan bo’lishi lozim.**



“Ikkinchi toifali sport hakami” malaka toifasi “Uchinchi toifali sport hakami” malaka toifasiga ega bo’lgan, O’zbekiston Respublikasi hududida o’tkazilgan sport musobaqalarida hakamlik qilgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. Bunda **“Uchinchi toifali sport hakami” malaka toifasi berilganiga kamida 2 yil o’tgan bo’lishi lozim.**



“Birinchi toifali sport hakami” malaka toifasi “Ikkinchi toifali sport hakami” malaka toifasiga ega bo’lgan, O’zbekiston Respublikasi hududida o’tkazilgan sport musobaqalarida, shu jumladan, O’zbekiston Respublikasi chempionati hamda kubok maqomiga ega bo’lgan sport musobaqalarida hakamlik qilgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. Bunda, **“Ikkinchi toifali sport hakami” malaka toifasi berilganiga kamida 2 yil o’tgan bo’lishi lozim.**



“Milliy toifali sport hakami” malaka toifasi “Birinchi toifali sport hakami” malaka toifasiga ega bo’lgan, O’zbekiston Respublikasi hududida o’tkazilgan sport musobaqalarida, shu jumladan, O’zbekiston Respublikasi chempionati hamda kubok maqomiga ega bo’lgan sport musobaqalarida hakamlik qilgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. Bunda **“Birinchi toifali sport hakami” malaka toifasi berilganiga kamida 2 yil o’tgan bo’lishi lozim.**

Tegishli malaka toifasini olish uchun mazkur quyidagi jadvalga muvofiq sport hakamlari malaka toifasini olish uchun lozim bo'lgan **talablar bajarilishi zarur.**

Sport hakamlari malaka toifasini olish uchun bajarilishi lozim bo'lgan TALABLAR

T/r	Musobaqa turlari*	Sport hakami	Uchinchi toifali sport hakami	Ikkinchi toifali sport hakami	Birinchi toifali sport hakami	Milliy toifali sport hakami
1.	Malakaviy musobaqalar	2	2	-	-	-
2.	Tuman (shahar) birinchiliklari	-	4	5	5	-
3.	Viloyat, shahar, tuman chempionatlari	-	3	4	5	-
4.	Respublika miqyosidagi musobaqalar	-	-	-	3	5
5.	Nazorat hakamligi (sport xususiyatiga qarab)	-	-	-	1	2
6.	Hakamlarni tayyorlash bo'yicha seminarlarni o'tkazish	-	-	-	1	2
7.	Hakamlar kurslari, seminarlari, konferensiyalari, kongresslari va imtihonlarda ishtirok etish	-	1	1	1	2

Izoh:

"Birinchi toifali sport hakami" malaka toifasini olish uchun kamida ikki marotaba musobaqa bosh hakami yoki ikki marotaba bosh kotib bo'lish lozim.

"Milliy toifali sport hakami " malaka toifasini olish uchun kamida uch marotaba musobaqa bosh hakami yoki uch marotaba bosh kotib bo'lish lozim.

Sportning ayrim turlari bo'yicha mazkur jadvalda belgilangan talablarni bajarish imkoniyati bo'lmaganda tegishli sport federatsiyalari (uyushmalari) bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan alohida talablar qo'llaniladi.

Vakolatli organning mas'ul xodimi so'rovnoma va faoliyat yuritayotgan tashkilot tomonidan malaka toifasini berish to'g'risidagi taqdimnoma kelib tushgan kuni tegishli malaka toifasini berish to'g'risidagi qaror qabul qilish yoki asoslangan rad javobini berish uchun malaka komissiyasiga kiritadi.



Malaka komissiyasi **1 oyda bir marta** chaqiriladi.

Vakolatli organ ikki ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha malaka toifasini berish to'g'risida qaror qabul qilish yoki asoslangan rad javobini berish uchun malaka komissiyasiga kiritadi.



Malaka komissiyasi kotibi malaka toifasini berish to'g'risida **qaror qabul qilish yoki asoslangan rad javobi berilgan kunda** malaka komissiyasining qarori loyihasini **bayonnoma ko'rinishida tayyorlaydi**.



Malaka komissiyasi Davlat xizmatlari markazlari orqali yoki YIDXTT orqali ariza beruvchi tomonidan yuborilgan hujjatlarni **uch ish kuni ichida** ko'rib chiqadi, tekshiradi hamda sport hakamlariga tegishli malaka toifasini berish to'g'risida **qaror qabul qiladi yoxud asoslangan rad javobini beradi**.

Malaka komissiyasining **navbatdan tashqari yig'ilishlari** taqdim etilgan arizadan kelib chiqib, uning raisi tomonidan chaqiriladi. Malaka komissiyasining navbatdan tashqari yig'ilishi **bir ish kuni muddatida** chaqiriladi, yig'ilish bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va rais hamda yig'ilishda ishtirok etgan a'zolar tomonidan imzolanadi.



Malaka komissiyasi qabul qilingan malaka toifasini berish to'g'risidagi qaror asosida sport hakamlari malaka toifasi to'g'risidagi guvohnoma (*namunasi quyidagi rasmda*) yoki asoslangan rad javobini berish to'g'risidagi ma'lumotni QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan holda rasmiylashtiradi hamda uni o'z ERI si bilan tasdiqlagan holda **bir ish kuni mobaynida** Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelgan holda murojaat qilinganda) yoki ariza beruvchiga (elektron tarzda murojaat qilinganda) YIDXP orqali elektron tarzda yuboradi.



Ўзбекистон Республикаси
Спортни ривожлантириш
вазирлиги

Спорт ҳакамлари малака тоифаси тўғрисида
ГУВОҲНОМА


СХ № 000000

Ф.И.О. _____

Спорт тури _____

Спорт турлари бўйича спорт ҳакамларига малака тоифаси бериш
малака комиссиясининг _____ йил _____ даги – сон қарорига асосан
“ _____ ” малака тоифаси берилди.

Ваколатли шахс _____



Ariza beruvchi rad javobini olgandan keyin qayta murojaat qilganda, **hujjat tekinga** navbatdagi malaka komissiyasi yig'ilishida ko'rib chiqiladi, bunda yangi asoslar bo'yicha arizani rad etish taqiqlanadi.



Davlat xizmatlari markaziga elektron tarzda malaka toifasini berish to'g'risidagi guvohnoma yoki asoslantirilgan rad javobi to'g'risidagi **ma'lumot tushgandan so'ng** Davlat xizmatlari markazi **o'n daqiqa mobaynida** uni ariza beruvchining **elektron manziliga** (mavjud bo'lsa) yuboradi va ariza beruvchini bu haqda **axborot-kommunikatsiya tizimi** (telefon raqami) orqali xabardor qiladi. Davlat xizmatlari markazi ariza beruvchi **o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda**, ariza beruvchining so'roviga asosan **elektron yoki qog'oz shaklida ariza beruvchiga taqdim etadi**.

MALAKA KOMISSIYASI FAOLIYATI



Malaka toifalarini berish bo'yicha malaka komissiyasi



Sport hakamlariga malaka toifasini berish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzurida a'zolari **bir yil muddatga** belgilanadigan malaka komissiyasi tashkil etiladi.



Malaka komissiyasi **yetti kishidan kam bo'lmagan toq sondan iborat** tarkibda barcha **a'zolarining teng huquqliligi** asosida tashkil etiladi.



O'zbekiston Respublikasi Sportvazirining o'rinbosari malaka komissiyasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirining, viloyatlar va Toshkent shahar sportni rivojlantirish bosh boshqarmalari boshliqlarining o'rinbosari – malaka komissiyasining raisi hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, sport federatsiyalari (uyushmalari) (kelishuv asosida), sport maktablarining rahbarlari hamda vakillari malaka komissiyasiga a'zo sifatida kiritiladi.



Malaka komissiyasi uning a'zolarining to'rttdan uch qismi qatnashgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

- ✔ Malaka komissiyasi a'zolariga quyidagi talablar qo'yiladi:
- ✔ oliy ma'lumotga ega bo'lish;
- ✔ jismoniy tarbiya va sport sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo'lish;
- ✔ jismoniy tarbiya va sport sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar mazmunidan xabardor bo'lish.



Malaka komissiyasi raisi va a'zolari quyidagi hollarda komissiya tarkibidan muddatidan oldin chiqarilishi mumkin:

- ✔ o'z arizasiga ko'ra;
- ✔ u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda;
- ✔ zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarishda qoidabuzarlikka yo'l qo'yganligi aniqlanganda;
- ✔ vafot etgan taqdirda.



Malaka komissiyasi qarorlari **ochiq ovoz berish yo'li** bilan qabul qilinadi. Malaka komissiyasi qarori yig'ilishda ishtirok etgan a'zolarning **ko'pchiligi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi**. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, malaka komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi. Malaka komissiyasi a'zosi bo'lgan mutaxassisning hujjatlari komissiyada ko'rilganda komissiya a'zosi bo'lgan mutaxassisning ovozi hisobga olinmaydi.



*Malaka komissiyasi qarori **bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi** va rais hamda yig'ilishda ishtirok etgan a'zolar tomonidan imzolanadi.*

ILOVALAR

Sport hakamlariga malaka toifasini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi)	Davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qiladi yoki davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun YIDXP orqali ariza topshirish.	Xohishiga ko'ra ("Uchinchi toifali sport hakami" malaka toifasini olish uchun "Sport bo'yicha hakam " malaka toifasi berilganiga kamida 1 yil o'tgan bo'lishi lozim, shuningdek, ikkinchi, birinchi va milliy toifali sport hakamlari malaka toifasini olish uchun malaka toifasi berilganiga kamida 2 yil o'tgan bo'lishi lozim)
2-bosqich	Ariza beruvchi (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi)	Ariza Davlat xizmatlari markazlari orqali taqdim etilganda murojaatchidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yigim undiriladi. YIDXP orqali taqdim etilganda, murojaatchidan Davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat etganda to'lanadigan summaning 90 foizi miqdorida yigim to'lanadi.	Ariza shakllantirilgan sanada

3-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Arizani qabul qilish, ariza raqami va sanasini ariza beruvchiga yuborish yoki davlat xizmati ko'rsatishni rad etish.	10 daqiqa mobaynida
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Ariza beruvchi Davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat qilganda uning so'rovnomasi vakolatli organga elektron shaklda yuboriladi. Ariza beruvchi YIDXP orqali murojaat qilganda so'rovnoma vakolatli organga yuboriladi.	10 daqiqa mobaynida avtomatik tarzda
5-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sportni rivojlantirish bosh boshqarmalari (Vakolatli organ)	Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish uchun malaka komissiyasiga kiritadi.	Ikki ish kuni ichida
6-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi huzurida tashkil etilgan sport hakamlariga malaka toifasini berish bo'yicha malaka komissiyasi (Malaka komissiyasi)	Ariza va unga ilovaga qilingan hujjatlarni ko'rib chiqadi. Natijasi bo'yicha ariza beruvchiga tegishli malaka toifasini berish to'g'risida qaror qabul qiladi yoki asoslangan rad javobini beradi.	Uch ish kuni mobaynida
7-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi	Navbatdan tashqari yig'ilishlar taqdim etilgan arizadan kelib chiqib, uning raisi tomonidan chaqiriladi.	Bir ish kuni muddatida

	huzurida tashkil etilgan sport hakamlariga malaka toifasini berish bo'yicha malaka komissiyasi (Malaka komissiyasi)	Navbatdan tashqari yig'ilish bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va rais hamda yig'ilishda ishtirok etgan a'zolar tomonidan imzolanadi.	
8-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi huzurida tashkil etilgan sport hakamlariga malaka toifasini berish bo'yicha malaka komissiyasi (Malaka komissiyasi)	Qabul qilingan malaka toifasini berish to'g'risidagi qaror asosida sport hakamlari malaka toifasi to'g'risidagi guvohnoma yoki asoslangan rad javobini berish haqidagi ma'lumotni QR-kod qo'yilgan holda rasmiylashtirish. Sport hakamlari malaka toifasi to'g'risidagi guvohnoma yoki asoslangan rad javobini o'z ERIsi bilan tasdiqlagan holda Davlat xizmatlari markaziga (o'zi kelgan holda murojaat qilinganda) yoki ariza beruvchiga (elektron tarzda murojaat qilinganda) YIDXP orqali elektron tarzda yuborish.	Bir ish kuni mobaynida
9-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Elektron tarzda malaka toifasini berish to'g'risidagi guvohnoma yoki asoslantirilgan rad javobi to'g'risidagi ma'lumotni ariza beruvchining elektron manziliga (mavjud bo'lsa) yuboradi va ariza beruvchini bu haqda axborot-kommunikatsiya tizimi (telefon raqami) orqali xabardor qilish. Ariza beruvchi o'zi kelib murojaat qilgan taqdirda, ariza beruvchining so'roviga asosan elektron yoki qog'oz shaklida ariza beruvchiga taqdim etish.	Guvohnoma yoki rad javobi kelib tushgandan so'ng o'n daqiqa mobaynida

This image shows a blank sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.